



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
FARG'ONA VILOYATI FILIALI**

Manzil: 105150, Farg'ona shahar, Sakkokiy ko'chasi, 39/41, Tel: 73-244-64-94

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/12-1922

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: FARG'ONA RAXMATJON TOPOGRAF XKga berildi.

STIR: 300678571

Obyekt nomi: Buvayda tumanı Tuman mahalla fuqarolar yig‘ini Tuman ko‘chasi 1-uyda joylashgan mavjud 19-soni umumiyligi o‘rtalim maktabi bino-inshootlarini rekonstruksiya qilish (330 o‘rinli qo‘shimcha o‘quv binosi, qozonxona qurish va 315 o‘rinli o‘quv binosini rekonstruksiya qilish) uchun loyiha oldi bosqichida “Atrof-muhitga ta’sir to’g’risida ariza” (ATT) loyihasi.

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "FARG'ONA QURILISH EKSPERT"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR: 303394458

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: SHAKIROV ERKINJON BAXTIYOROVICH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning III toifa toifasining 52-bandiga mansub.

O‘tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 24.12.2024

Amal qilish muddati: 24.12.2027

Ekologik ekspertiza obyektingizning ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo‘lgan talablar va boshqalar to’g’risida ilovada keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.



Direktor

M.Babaxodjayev

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari

Qurilish ish faoliyati davomida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi ekologik chora-tadbirlar belgilansin:

Maktab xovli hududida har 700 m² maydonida 1 ta, asosiy alleyalarda esa bir-biridan 10 metrdan uzoq bo‘lmagan masofada 1 tadan, kirish-chiqish joyiga 1 tadan chiqindi qutilarini o‘rnatilsin.

Obyektni hududda joylashtirish (qurilish) ishlari Shaharsozlik norma va qoidalari (ShNQ) asosida hamda “Uzshaharsozlik LITI” bilan kelishilgan xolda amalga oshirilsin;

Ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko‘zda tutilmagan faoliyat turlari bilan shug‘ullanish, ya’ni: yangi qurilish, qayta tiklash, kengaytirish, katta hajmlı isitish qozonlari o‘rnatish, faoliyat turini o‘zgartirish hamda boshqa qurilish ishlarini amalga oshirilishi ko‘zlangan taqdirda “Atrof muhitga ta’sir to‘g‘risida ariza” (ATT) loyihasi ishlab chiqilib Davlat ekologik ekspertizasi markaziga taqdim qilinishi hamda tegishli xulosas olinishi shart;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-yanvar kungi “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” №40сонли qarori ijrosini ta’minalash buyurtmachiga yuklatiladi;

Qurilish jarayonida hududda mavjud bo‘lgan (yer osti va yer usti) muxandislik inshoot (yo‘l, aloqa, suv, soy, irrigasiya tarmoqlari, gaz tarmoqlari, elektr tarmoqlari va boshqa)larni ximoya hududini saqlash buyurtmachiga yuklatiladi;

Obyekt hududida mavjud manzarali va ko‘p yillik daraxtlarga zarar yetkazilmasin hamda ularni noqonuniy kesilishiga yo‘l qo‘yilmasin (asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlangan haqida”gi PF-5863-sonli farmoyishiga asosan daraxtlarni kesishga moratoriylor joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-sonli farmoniga asosan daraxtlar va butalarning kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan);

Atmosfera xavosini ifloslanishini oldini olish maqsadida: Avtoulov, texnikalar xarakatlanganida chang ko‘tarilmasligi uchun qurilish maydoniga kirish chiqish yo‘llari qattiq to‘shama bilan qoplansin va maydonga suv sepib namlab turilsin;

Obyekt qurilishiga yuk tashuvchi transport vositalari tomonidan olib kelinadigan (qum, shag‘al, sement, albaster, oxak va boshqalar) usti (qalin brizent) yopiq xolda tashilishi shart;

Qish mavsumida binolarni isitish maqsadida ko‘mir yoqilg‘isi yonishi natijasida xosil bo‘ladigan kul chiqindisi uchun hududga maxsus joy tashkil etilishi zarur. To‘plangan kul chiqindisini hududga xizmat ko‘rsatuvchi sanitar servis korxonalar tomonidan chiqindixonaga o‘z vaqtida olib ketilsin;

Qozonxonalarning dudbo‘ronlarining balandligi qurilishi rejalashtirilgan binodan kamida 2 metr baland bo‘lishi zarur;

Qurilish maydonidan chiqish joyiga obyektga kelgan transport vositalarini (obyekt bitgunga qadar) vaqtincha yuvish joyi tashkil qilinsin;

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida obyektni isitishda, yorug‘ligini ta’minalashda yoki issiq suv ta’minotida quyosh batareyalarida ishlaydigan zamonaviy suv isitish qurilmalaridan foydalanish tavsiya etiladi;

“Ekologik ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni 9-moddasi, 3-bandiga muvofiq ekologik ekspertizasi buyurtmachisi yuqorida ko‘rsatilgan ekologik talablari bajarishi shart;

Agarda buyurtmachi davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko‘rsatilgan talablarga rioya etmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli “Atrof muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori 7-bob 57-bandida xulosani amal qilishini to‘xtatishi belgilab qo‘yilgan:

Yuqorida ko‘rsatilgan ekologik talablarni bajarish sharti bilan “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati filiali Buvayda tumani Tuman mahalla fuqarolar yig‘ini Tuman ko‘chasi 1-uyda joylashgan mavjud 19-sonli umumiyl o‘rta ta’lim maktabi bino-inshootlarini rekonstruksiya qilish (330 o‘rinli qo‘srimcha o‘quv binosi, qozonxona qurish va 315 o‘rinli o‘quv binosini rekonstruksiya qilish) uchun loyiha oldi bosqichida “Atrof-muhitga ta’sir to‘g‘risida ariza” (ATTA) loyihasini amalga oshirishini maqullaydi.

Ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasida belgilangan ekologik talablarni bajarilishi nazorati Farg‘ona viloyati Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Buvayda tumani inspeksiyasiga yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuni 22-moddasiga binoan ushbu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi, berilgan kundan e’tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega.

Xulosada ko‘rsatilgan shartlar bajarilmagan va yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo‘sishimcha qurilish va faoliyat turlari tashkil etilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotadi.



Ma’sul ekspert: SHAKIROV ERKINJON BAXTIYOROVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati filialiga taqdim qilingan ushbu obyekt bo‘yicha tayyorlangan “Atrof muhitga ta’sir to‘g‘risida ariza” (ATTA) loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli “Atrof muhitga ta’sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori 1-ilovasiga asosan atrof muhitga ta’sir ko‘rsatishi yuzasidan 3-toifa 52-bandiga mansub (past darajada xavfli) faoliyat turiga kiradi.

“Atrof muhitga ta’siri to‘g‘risida ariza” (ATTA) loyihasini ishlab chiqishdan maqsad, mo‘jallanayotgan faoliyat turini joylashtirishni ekologik nuqtai nazardan asoslash, atrof muhit xolatini taxlil qilish, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ekologik talab va tadbirlarni aniqlashdan iborat.

Buyurtmachi tomonidan “Atrof muhitga ta’siri to‘g‘risida ariza” (ATTA) loyihasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosoti majlisining 2024 yil 27 sentyabr kungi №102/40-sonli bayoni, Buvayda tumani Qurilish va uy-joy kammunal xo‘jaligi bo‘limining 2024 yil 21 oktyabrdagi №155711667-sonli Ruxsatnomasi, 2024 yil 24 oktyabrdagi №1730-1730212-203949-sonli APZ hujjatlari, 2024 yil 23 dekabr kungi Farg‘ona viloyat Ekalogiya va atrof muxitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshkarmasining Buvayda tuman bo‘limi boshlig‘i I.Sultonov tomonidan ob’ektda o‘tgazilgan o‘rganish ma'lumotnomasi, joylashuv xaritasi, geografik koordinatlari ilova qilingan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining 2024-yil 24-iyuldaggi 310-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, 2024-yil 10-oktyabrdan boshlab eco-service.uz platformasida buyurtmachi tomonidan yuborilgan arizalardagi “Vaziyat xarita” (situatsion karta)larini elektron tasdiqlash uchun barcha arizalar tuman (shahar) mas’ul inspektorlari profiliga yuborilgan va ijobjiy tasdiqlangan.

Obyeltning joylashuv sxemasi Farg‘ona viloyati Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Buvayda tumani inspeksiyasi tomonidan 2024-yil 19-dekabrda tasdiqlangan.

Obyekt Buvayda tumani Tuman mahalla fuqarolar yig‘ini Tuman ko‘chasi 1-uyda joylashgan bo‘lib, umumiyy 25787,0 m² yer maydoni egallaydi. Shundan yangi qurilishlar uchun 376,56 m² yer maydoni tanlangan.

Obyektning geografik joylashuv koordinatalari quyidagicha:

40 35 02.79 ShK 71 07 05.42 ShU

40 35 03.97 ShK 71 07 06.48 ShU

40 35 02.52 ShK 71 07 07.67 ShU

40 35 01.86 ShK 71 07 06.37 ShUda joylashgan.

Obyekt yer maydoni joylashuviga ko‘ra: shimol va g‘arbdan-maxalliy yo‘l xududi, janub xamda sharqdan –axoli xonadonlari xududi bilan chegaralangan.

Hududda mo‘ljallanayotgan foydalanish rejasiga ko‘ra 376,56 m² yer maydonining 352,56 m² da 330 o‘rinli uch qavatli yangi o‘quv binosi, 24,0 m² da qozonxona qurish mo‘ljallanmokda.

Yuqoridagilar ishga tushirilganidan keyin 40 kishi, bir kunda 8 soat, bir yilda 305 kun ishlashi xamda 645 nafar bolalarga ta’lim berishlari belgilangan.

Ob’ektga urnatilgan uskuna – maktab uchun kerakli jixozlar o‘rnataladi.

Kuvvati – 645 nafar bolalarни qabul qilishga mo‘ljallangan. Xom-ashyo va ishlab chikariladigan maxsulot to‘g‘risida ma’lumotlar – maxsulot ishlab chiqarilmaydi. Ishlab chikarish texnologiyasi jarayoni tavsifi – tuman axolisining bolalariga maktab yoshidagi ta’limi berish ishlari olib boriladi.

Ichimlik va xo‘jalik extiyojlar uchun bir yilda 9021,98 m³ miqdorda suv ishlatiladi. Ichimlik suvini “Farg‘ona suv ta’mnoti” MchJning Buvayda tuman filiali bilan shartnomaga asosan Tuman MFY xududida mavjud ichimlik suv tarmog‘idan olinadi. Boshqa extiyojlar (hududga suv sepish, ko‘kalamzorni sug‘orish va boshqa) uchun suv mahalliy ariq suvidan olib foydalniladi.

Suvdan foydalanish natijasida 3391,6 m³ miqdorda maishiy-xo‘jalik oqava suv hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan oqava suvlarni ob’ekt xududidagi mavjud 50 m³ hajmi beton xandakka to‘planib, tuman sanitar servis korxonalar bilan shartnoma asosida DSENM belgilagan hududga tashib ketiladi.

Binolarni qish mavsumida maishiy qozonlar hamda maishiy elektr isitgichlar bilan isitiladi. Issiq suv bilan ta’minalash uchun “Ariston” rusumli suv isitish moslamasidan foydalilaniladi. Yoqilg‘i sifatida yiliga 20,0 tn ko‘mirdan foydalanish rejalahtirilgan. Loyihalashtirilayotgan obyektda atmosfera xavosini iflosantiruvchi manba-qozonxonaning tutun chikarish mo‘risi xisoblanadi. Ko‘mir yonishi natijasida atmosfera xavosiga yiliga 0,0502 tn uglerod oksidi, 0,00161 tn azot oksidi, 0,072 tn oltingugurt oksidi, 0,1012 tn qurum, 0,268 tn ko‘mir changi kabi zararli moddalar tashlanishi kutiladi.

Obyekt ish faoliyati davrida hududni tozalashdan, ishchi va xizmatchilarni ish jarayonidan yiliga 56,04 tn qattiq-maishiy (suprindi axlat, polietilen qoldiqlari, qog‘oz, kul va boshqa) chiqindilar xamda 2,6 tn kul chiqindisi hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan qattiq-maishiy chiqindilar va kul chiqindisi chiqindi to‘plash maydonchasida maxsus idishlarga yig‘ilib, sanitar servis korxonalari tomonidan shartnoma asosida belgilangan chiqindixonaga tashib ketiladi.

Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan loyixa xujjalarda va 2024 yil 23 dekabr kungi Farg‘ona viloyat Ekalogiya va atrof muxitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshkarmasining Buvayda tuman bo‘limi boshlig‘i I.Sultonov

tomonidan ob'ektda o'tgazilgan o'rghanish ma'lumotnomasida qurilish uchun tanlangan yer maydonida manzarali daraxlar mavjud emasligi ko'rsatilgan.



Ma'sul ekspert: SHAKIROV ERKINJON BAXTIYOROVICH